

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA AKSIOLOGIK BIRLIKLARNING AKSIOLINGVISTIK TADQIQI

*Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti*

ANNOTATSIYA. Mazkur tadqiqot o‘zbek va turk tillaridagi aksiologik birliklarning aksiolingvistik tahlilini amalga oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda har ikkala tilning madaniy-milliy xususiyatlari, qadriyat tizimlari va ularning til birliklarida ifodalanishi o‘rganiladi. Shuningdek, aksiologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatlari taqqosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va turk tillaridagi qadriyatlarning lingvistik talqinini aniqlashga, shuningdek, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Aksiolingvistika, aksiologik birliklar, qadriyatlar, semantika, pragmatika, lingvomadaniyat, o‘zbek tili, turk tili, taqqosiy tahlil, madaniy xususiyatlar.

Аннотация. Данное исследование направлено на проведение аксиолингвистического анализа аксиологических единиц узбекского и турецкого языков. В исследовании исследуются культурно-национальные особенности обоих языков, системы ценностей и их выражение в языковых единицах. Также проводится сравнительный анализ семантических, прагматических и лингвокультурных аспектов аксиологических единиц. Результаты исследования служат для выявления лингвистической интерпретации ценностей узбекского и турецкого языков, а также для выявления взаимосвязей между языком и культурой.

Ключевые слова. Аксиолингвистика, аксиологические единицы, ценности, семантика, прагматика, лингвокультура, узбекский язык, турецкий язык, сравнительный анализ, культурные особенности.

Annotation. This study is aimed at conducting an axiologistic analysis of the axiological units of the Uzbek and Turkish languages. The study examines the cultural and national characteristics of both languages, value systems and their expression in linguistic units. A comparative analysis of the semantic, pragmatic and linguocultural aspects of axiological units is also carried out. The results of the study serve to identify the linguistic interpretation of the values of the Uzbek and Turkish languages, as well as to identify the interrelationships between language and culture.

Keywords: Axiolinguistics, axiological units, values, semantics, pragmatics, linguoculture, Uzbek language, Turkish language, comparative analysis, cultural features

Kirish. Til – nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiruvchi omil hamdir. Aksiolingvistika lingvistik tadqiqotning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til tizimida qadriyatlarning aks etish qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu qadriyatlar ma‘lum tillar doirasida ham, qardosh tillar doirasida ham o‘rganiladi. Xususan, o‘zbek va turk tillari umumiy turkiy ildizga ega bo‘lib, ularning aksiologik birliklarini taqqoslash lingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin “har bir tilning dunyosi o‘ziga xos tarzda bo‘ladi, yani uni kontseptsiyalashning oziga xos usuli bor. Har bir muayyan tilning zamirida maxsus model yoki dunyoning tasviri mavjud bo‘lib, so‘zlovchi o‘zi aytgan soz(lar)ning mazmunini shu modelga muvofiq tartibga soladi”. Shunga binoan ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi aksiologik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – o‘zbek va turk tillaridagi aksiologik birliklarning lingvistik jihatlarini tahlil qilish, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda aksiolingvistik yo‘nalishda har ikki tilning umumiy va farqli jihatlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida o‘zbek va turk tillarida uchraydigan ijobiy va salbiy baholovchi birliklar, ularning matn va diskurs darajasidagi namoyon bo‘lishi o‘rganiladi.

Aksiolingvistika til va qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Tilning aksiologik qatlami ma‘lum bir xalqning ijtimoiy, madaniy va axloqiy me‘yorlari asosida shakllanadi. Sh. Xudayqulovanning tadqiqotida o‘zbek tilidagi aksiologik birliklarning semantik-stilistik jihatlarini atroflicha o‘rganilgan. Bu birliklar ijobiy va salbiy qadriyatlarni ifodalovchi lingvistik vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, aksiologik birliklarning funksional va kommunikativ jihatlarini ham tadqiq qilinishi lozim. Aksiolingvistika boshqa lingvistik yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u psixolingvistika, pragmatika va semantika bilan aloqador holda o‘rganiladi. Masalan, aksiologik birliklarning psixolingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ma‘lum qadriyatlarni ifodalovchi so‘z va iboralar turli madaniyatlarda har xil psixologik ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, pragmatik yondashuv orqali aksiologik birliklarning diskursdagi funksiyalari ham aniqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilida "halollik", "mehnatsevarlik", "sabr" kabi qadriyatlarni ifodalovchi birliklar ko‘p uchraydi. Masalan, "Halollik eng yaxshi siyosat" maqoli jamiyatdagi axloqiy me‘yorlarni aks ettiradi. Turk tilida esa "Dürüstlük en iyi politikadır" (Halollik eng yaxshi siyosat) paremasi o‘xshash ma’noda qo‘llaniladi.

G. Komilovanning tadqiqotida o‘zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili keltirilgan bo‘lib, unda qadriyatlarning turli ma‘no qatlamlarida qanday aks etishi o‘rganilgan. Masalan, "Qush uyasida ko‘rganini qiladi" maqoli o‘zbek tilida ijobiy didaktik mazmun kasb etadi, turk tilidagi "Ne ekersen, onu biçersen" (Nima eksang, shuni o‘lasan) iborasi esa shunga yaqin semantik xususiyatlarga ega. O‘zbek va turk tillarida aksiologik birliklar semantik

jihatdan turli xil guruhlariga bo‘linadi. Jumladan, axloqiy qadriyatlar, diniy va milliy qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, madaniy qadriyatlar kabi turlari mavjud. Ularning har biri turli lingvistik vositalar orqali matn va diskurs darajasida o‘z ifodasini topadi.

A. S. Saltykovaning tadqiqotiga ko‘ra, matnlarda aksiologik modal birliklar yashirin yoki oshkora shaklda ifodalanadi. Ommaviy axborot vositalari tilida ijobiy yoki salbiy baholovchi vositalar orqali ma’lum bir qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Badiiy adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida, siyosiy nutqlarda va reklama matnlarida aksiologik birliklar turli usullar orqali ifodalanadi. Masalan, o‘zbek adabiyotida Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom asarlarida ijobiy va salbiy aksiologik birliklar qahramonlarning nutqi, hissiy kechinmalari orqali yetkaziladi. Masalan, Cho‘lponning "Kecha va kunduz" romanida "ozodlik" va "inson qadr-qimmati" qadriyatlari asosiy g‘oyalardan biri sifatida aks etgan.

Turk adabiyotida esa Namik Kamolning "Vatan yahut Silistre" asarida vatanparvarlik, fidoyilik kabi qadriyatlar qahramonlarning harakatlari va qarashlari orqali ifodalangan. Bunday birliklar matn darajasida faqat so‘zlashuv elementlari bilan cheklanib qolmay, butun asarning tuzilishi va g‘oyaviy mazmunida ham namoyon bo‘ladi.

Ommaviy axborot vositalarida esa aksiologik birliklar jurnalistik uslub vositasida ifodalanadi. Masalan, yangiliklarda ijobiy baholovchi birliklar ishlatilishi orqali ma’lum bir hodisaning ijobiy yoki salbiy jihatini ta’kidlanadi. O‘zbek matbuotida "yuksalish", "taraqqiyot", "rivojlanish" kabi so‘zlar mamlakatdagi o‘zgarishlarni ijobiy baholash uchun ishlatilsa, turk matbuotida "ilerleme", "b‘y‘üme", "gelişim" kabi tushunchalar keng qo‘llaniladi. Siyosiy nutqlarda esa aksiologik birliklar auditoriyani jalb etish, muayyan mafkurani shakllantirish uchun ishlatiladi. Masalan, O‘zbekistondagi siyosiy chiqishlarda "milliy birdamlik", "yangilanish", "xalq manfaatlari" kabi iboralar tez-tez uchrasa, Turk matbuotida "adalet" (adolat), "özgürlük" (erkinlik), "saygı" (hurmat) kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladi. O‘zbek matnlarida esa "insonparvarlik", "vatanparvarlik" kabi qadriyatlar matn strukturasida muhim o‘rin tutadi.

Reklama matnlarida aksiologik birliklar iste’molchilarning e’tiborini jalb qilish, mahsulot yoki xizmatning ijobiy jihatlarini ta’kidlash uchun ishlatiladi. Masalan, o‘zbek reklamalarida "sifatli", "ishonchli", "tabiiy" kabi so‘zlar iste’molchini jalb qilishga xizmat qiladi, turk reklamalarida esa "güvenilir", "doğal", "yenilikçi" kabi birliklar keng qo‘llaniladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda kengroq tadqiqot olib borish lozim. Xususan, o‘zbek va turk tillarida aksiologik birliklarning psixolingvistik jihatlarini, ularning tarjimadagi xususiyatlari ham alohida o‘rganilishi mumkin.

Xulosa. Aksiolingvistika orqali o‘zbek va turk tillaridagi aksiologik birliklarni tadqiq qilish ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilda qadriyatlarni ifodalashda semantik-stilistik o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, ba’zi hollarda milliy mentalitetga xos xususiyatlar ham kuzatiladi. Bu esa aksiolingvistik tadqiqotlarning tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalaridagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda kengroq tadqiqot olib borish lozim.

Xususan, o‘zbek va turk tillarida aksiologik birliklarning psixolingvistik jihatlari, ularning tarjimadagi xususiyatlari ham alohida o‘rganilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.
2. Islomova Z. Ingliz va o‘zbek tillarida aksiologik birliklar ishlatilishining lingvokulturologik xususiyatlari // <https://intereuroconf.com/index.php/DESH/article/view/5793/4217>.
3. Namik Kamol. “Vatan yahut Silistre” https://en.wikipedia.org/wiki/Vatan_Yahut_Silistre.
4. Салтыкова А.А. Имплицитная оценка в связи с другими модальностями // Вестник МГОУ. Серия «Русская филология». № 1 / 2014. – С.81-86.
5. Худайкулова Ш. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. докт. (Phd) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. –48 б.